

SUG'D JANUBIY CHEGARASINING SAVDO-IQTISODIY, IJTIMOIY-MADANIY HAYOTDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Tursunov Orzimurod Yunus o'g'li

Samarqand Arxeologiya instituti kichik ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sug'd va uning chegaralari hamda ushbu chegaralarda joylashgan shahar va qishloqlar hamda ularni bir biri bilan bog'lovchisavdo karvon yo'llari haqida ma'lumot keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Sug'd, Janubiy Sug'd, Temir darvoza, Syuan Szyan, Baqtriya,

Bizga ma'lumki Sug'd Markaziy Osiyoning yuragi deb atalgan. Ushbu hudud Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida joylashgan hamda uch qismga bo'lingan. Markaziy Sug'd hozirgi Samarqand viloyati va Zarafshon hududining yuqori oqimidagi hududlarni o'z ichiga o'lgan. Buxoro Sug'di esa hozirgi Buxoro va Navoi viloyatlarini o'z ichiga olib Zarafshonning G'arbiy oqimi bo'ylab joylashgan. Ushbu hudud esa G'arbiy Sug'd deb nomlangan. Janubiy Sug'd esa hozirgi Qashqadaryo viloyati hududlarini egallagan.

Janubiy Sug'd Shimol tomondan Zarafshon tizmalari bilan, sharq tomondan esa Hisor tog' tizmalari bilan chegaralangan. Sug'dning janubiy chegarasi bepoyon dashtliklar va dalalarga tutashib ketgan. Shuni ham aytish joizki Markaziy Sug'd ham Zarafshon, Turkiston, va Nurota tog' tizmalari bilan chegaralangan. Shu sababli Sug'dning markaziy shaharlarini bog'lovchi yo'llar ma'lum bir daralar va tog'lar orqali o'tgan.

Ushbu daralar Turk tilida “Temir qapig”, arab tilida “bob al-hadid”, bizning tilimizda esa “Temir darvoza” deb atalib kelingan. Hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari chegarasidagi Buzgala darasida joylashgan Temir darvoza alohida ahamiyatga ega. Ushbu Temir darvoza orqali qadimda Sug‘d va Baqtriya chegaralari bir biridan ajralib turgan. Shu yo‘l orqali qadimda savdo iqtisodiy ijtimoiy madaniy aloqalar o‘rnatilgan. Bu chegara orqali Sug‘dga sayyohlar olimu fuzalolar podshohlar elchilar savdogarlar hunarmandlar va shunga o‘xshash bir qancha kishilar o‘tganlar

Ushbu Temir darvozadan 630-yilda o‘tgan Xitoy sayyohi Syuan Szyanning malumotlari juda muhimdir. “Keshdan 200 li janubi-g‘arbda biz tog‘li hududga kirdik Bu yerda tog‘ yo‘llari juda tik va chuqurliklardan iborat. Daradan o‘tish yo‘li esa og‘ir va xavfli. Toglar oralab yana janubi-sharqqa qarab yana 300li yurdik va Temir darvozaga yetdik. Chap va o‘ng tomonlar ulkan qoyalar bilan qoplangan. Har ikki tomondan qad rostlagan qoyalar temir yani zanglagan rangda. Temir qoplanga ikki tabaqali ulkan darvoza o‘rnatilgan deya tarif berib o‘tadi Ushbu darvoza va tog‘qoyalari rangidan kelib chiqib ushbu joy Temir darvoza deb ham atalgan bo‘lishi mumkin.[1]

Yuqoridagi ma’lumotlar va manbalarning tahlillari shuni ko‘rsatadiki topilgan arxeologik manbalar Sug‘diyona va Baqtriyaning binokorligi, moddiy madaniyatining bir-biriga ancha o‘xshash va yaqin ekanligidan dalolat beradi. So‘nggi ahamoniylar davrida Baqtriya va Sug‘d bir ma’muriy o‘lka - satraplik tarkibida birlashgan. Ahamoniylat yozuvlari Sug‘diyonadan Persepol saroyiga lojuvard olib borilganligidan xabar beradi, ammo lojuvard konlari faqat Baqtriyaning Badaxshon tog‘larida mavjudligi ma’lum.[2] Sug‘diyona hududiga odamlar qadimgi tosh asridayoq kirib kelib, undan keyingi davrlarda tog‘, daryo vohalari bo‘ylab keng tarqala boshlashgan.

Shu o'rinda savdo yo'llari ham muhim bo'lib Samarqand va Buxorodan keluvchi yo'llar quyi Qashqadaryoning yirik shahri Naxshabda tutashgan. Bu davrga mansub Xitoy manbalarida (Bey shi, Suy shu, ushbu ikkala yilnomada keltirilgan ma'lumotlar Tan shu yilnomasida takrorlanadi) Nashebolo deb keltirilgan bu shahardan Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga (Kalif, Kerki, Burdaliq) yoki Subah, G'uzor, Temir Darvoz orqali Termizga borilgan (Ilk o'rta asrlarga kelib, Yerqo'rg'on o'rnidagi ko'hna shahar xarobaga aylangach, voha markazi Qala'i Zahoki Moron yodgorligi o'rnida bo'lgan Naxshab shahriga ko'chgan). [3]

Samarqanddan janubga ketuvchi asosiy yo'llarning bir yo'nalishi hozirgi Ko'kdala dashtlari va Qo'ng'irtog'ning shimoliy yonbag'irlari orqali o'tgan.[4]Bu hududda ilk o'rta asrlarda o'troq makonlar kam uchrab, asosan ko'chmanchi chorvador qabilalarning qishlik qarorgohlari, quduqlar mavjud bo'lib, ular Samarqand – Naxshab yo'lining muhim bekatlari sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Samarqandni janubdagi xalqaro savdo markazlari bilan bog'lovchi yo'l ham qadimdan Qashqadaryo vohasi orqali o'tgan. Ularning eng muhimi va faol foydalanilgani Samarqand – Nasaf yo'nalishi bo'lgan. Samarqanddan Jom dashti orqali Nasafga kelgan yo'l bu yerda bir necha tarmoqqa bo'lingan. Bir yo'nalishi Buxorodan kelgan yo'lga qo'shilib Subah, Kindik qishlog'i, Temir Darvoza orqali Termizga olib brogan.[5] Kindik qishlog'i Nasafdan va Keshdan 3 kunlik yo'l masofasida bo'lib, bu yerda Samarqanddan Kesh orqali keluvchi savdo yo'li Nasaf – Termiz savdo yo'lga qo'shilgan. Samarqanddan Nasaf orqali Amudaryodagi kechuvlarga (Kelif, Kerki, Amul) ham borilgan.[6]

Sug'd va Baqtriya savdo ijtimoiy iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishida ha yuqorida aytib o'tilgan shaharlar muhim o'rin egallagan. Hozirgi kunda olib borilayotgan areologik va etnografik ma'lumotlar ham shuni ko'rsatadiki Sug'dning madaniy hayotida Baqtriya tasiri sezilarli darajada tasir o'tkazganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, So'g'diyona va Baqtriya qadimdan eng rivojlangan davlartalardan biri bo'lgan. Ayniqsa, yuqorida sanab o'tilgan

hunarmandchilik, kulolchilik, qurilish sohalarida ham o'z davrining eng yetakchi davlatlaridan sanalgan. Bundan tashqari, hozirgi davrda ham bu ikki buyuk davlatlarni o'rganish nihoyasiga yetganicha yo'q. Bu o'rganishlar natijasida ham hozirgacha topilmagan ma'lumotlar ilmfan sohasiga yana bir yangilik bo'ladi v bu bilan vatanimiz tarixini yanada chuqurroq o'rganishimiz uchun imkon yaratiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Массон М.Е. Столичные города в низовьях Кашкадарьи с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 24; Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах ... Ч. II.
2. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. – Toshkent: Akademiya, 2008.
3. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия... – С. 191; Лунина С.Б. Культурные и торговые связи средневековых городов и поселений долины Кашкадарьи с сопредельными территориями // Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа. Древность и средневековье. – М., 1990.
4. Лунина С.Б. Города Южного Согда .
5. Камолиддин Ш.С. К вопросу об этнической ситуации // История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Ташкент: Фан, 2005.
6. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия.